

SAYLOV JARAYONLARIDA FUQAROLAR SIYOSIY FAOLLIGINI  
OSHIRISHNING EMPIRIK MEXANIZMLARI

**Abduvosidov Asliddin Abdusattor o'g'li**

**Erkinov Dostonbek G'ulom o'g'li**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston*

*Milliy universiteti 4-kurs talabalari*

*Imiy rahbar: Sherniyazova Gulnara*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada siyosiy faollikni oshirishning nazariy-uslubiy asoslari va zamonaviy mexanizmlari tadqiq etiladi. Muallif siyosiy ishtirokni yuzaga keltiruvchi ma'muriy-huquqiy hamda motivatsion omillarni qiyosiy tahlil qilib, ularning demokratik jamiyat barqarorligidagi o'rnini yoritib beradi. Maqolada siyosiy madaniyatning amaliy ifodasi sifatida fuqarolik ta'limi (Civic education) konsepsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ta'lim tizimi orqali siyosiy ishtirokdagi tengsizliklarni bartaraf etish va yoshlarning elektoral faolligini oshirish yo'llari asoslangan. Shuningdek, demokratik siyosiy tizimda hokimiyat legitimligi va plyuralizmning siyosiy faollik bilan uzviy bog'liqligi xalqaro va milliy olimlarning qarashlari prizmasida o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Siyosiy faollik, siyosiy ishtirok, fuqarolik ta'limi (Civic education), legitimlik, motivatsiya, siyosiy madaniyat, absenteizm, demokratik plyuralizm, institutsional muhit.*

**Abstract:** *This article examines the theoretical and methodological foundations and modern mechanisms for increasing political activity. The author conducts a comparative analysis of the administrative, legal and motivational factors that create political participation and highlights their role in the stability of a democratic society. The article pays special attention to the concept of civic education as a practical expression of political culture, and explores ways to eliminate inequalities in political participation through the education system and increase the electoral activity of young people. Also, the inextricable link between the legitimacy of power and pluralism in a democratic political system and political activity is studied through the prism of the views of international and national scholars.*

**Keywords:** *Political activity, political participation, civic education, legitimacy, motivation, political culture, absenteeism, democratic pluralism, institutional environment.*

Siyosiy jarayonning mazmuni fuqarolarning o'z siyosiy irodasi hamda xohish-istaklarini namoyon etishining ikki asosiy shaklini o'z ichiga oladi. Birinchidan, bu oddiy ishtirokchilarning turli ko'rinishdagi siyosiy faoliyati orqali o'z manfaatlarini ifodalash usullaridir (masalan, saylovlar, referendumlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlardagi ishtirok). Ikkinchidan, siyosiy yetakchilar va elita tomonidan qabul

qilingan qarorlarni hayotga tatbiq etishda fuqarolarning bevosita qatnashish jarayonidir.

Umuman olganda, siyosiy faollik (siyosiy ishtirok) – bu davlat hokimiyatining barcha (mahalliy yoki umummilliy) darajalarida fuqarolarning davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatish, davlat ishlarini boshqarish yoki siyosiy yetakchilarni saylash maqsadiga yo'naltirilgan xatti-harakatlaridir.

Siyosiy ishtirok o'zining namoyon bo'lish xususiyatiga ko'ra quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

Uyushtirilgan (institutsional) yoki uyushtirilmagan (stixiyali);

Tasodifiy (episodik) yoki muttasil (doimiy);

Qonuniy (legal) yoki noqonuniy (nolegal) usullardan foydalanish .

Siyosiy ishtirokni belgilovchi determinantlarni o'rganish ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mohiyatini ochib berish va shaxsning ushbu tizimdagi o'rnini fundamental jihatdan baholash imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda siyosiy ishtirokni yuzaga keltiruvchi omillar, odatda, ikki asosiy funksional mexanizmga tasniflanadi:

Ma'muriy-huquqiy determinizm (Majburlash): Mazkur yondashuv individga tashqi kuch sifatida ta'sir o'tkazishga asoslanib, davlat hokimiyatining me'yoriy va ma'muriy bosimi orqali siyosiy faollikni tartibga solishni ko'zda tutadi.

Motivatsion-manfaatdorlik mexanizmi: Ushbu yo'nalish shaxsning ichki ehtiyojlari va qadriyatlar tizimiga tayanadi. Bunda individning siyosiy maydondagi sub'yektliligi hamda uning ongli ravishda amalga oshiradigan harakatlarini belgilovchi ichki intilishlari birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Siyosiy ishtirokning ushbu ikki mexanizmi o'zaro uyg'unlikda jamiyatdagi siyosiy faollikning umumiy manzarasini shakllantiradi.

Siyosiy ishtirokning shart-sharoitlari: moddiy; siyosiy-huquqiy; sotsiomadaniy; individual faollikning turli ko'rinishlari uchun keng muhit yaratadigan axborotga oid munosabatlar va tizilmalar. Yaratilgan muhit sharoitidagi siyosiy ishtirok sabablari:

-makro omillar (davlatning majburlashga oid qobiliyati, farovonlik, jins, yosh, kasb-kor);

-mikro omillar (insonning madaniy-bilim darajasi, uning dinga mansubligi, qandaydir psixologik turga tegishli ekanligi va hokazo).

Fanda shaxsning ruhiy holatiga muhim e'tibor beriladi, masalan:

-o'z ijtimoiy holatiga nisbatan tahdidni his etish (G. Lassuell) ;

-o'z manfaatlarini ratsional tarzda anglash va yangi maqomga erishish;

-hayotiy muvaffaqiyatga va jamoatchilik e'tirofiga erishish xohishi;

-o'z ijtimoiy burchini anglash va o'zining xususiy huquqlarini tushunish, ijtimoiy tizimda o'zini o'zi saqlay olmaslikdan xavfsirash va boshqalar .

Turli omillar va shart-sharoitlarni o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish natijasida ayrim muhim qonuniyatlar aniqlangan. Xususan, uzoq muddatli sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatning farovonlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, u demokratiya tamoyillariga shunchalik moyil bo'ladi. Bunday ijtimoiy muhitda fuqarolarning keng qamrovli va faol siyosiy ishtiroki uchun barcha zarur imkoniyatlar yuzaga keladi.

Bundan tashqari, intellektual salohiyati va bilim darajasi yuqori bo'lgan fuqarolar boshqa ijtimoiy guruhlarga nisbatan siyosiy jarayonlarda faolroq qatnashishga moyillik ko'rsatadilar. Ularda o'z siyosiy ishtirokining kutilayotgan natijalarini va ijtimoiy ahamiyatini ongli ravishda anglash hissi kuchli rivojlangan bo'ladi. Shu bilan birga, axborot olish imkoniyatlarining kengligi va axborotning ochiqligi insonlarning siyosiy jihatdan faollashish ehtimolini yanada oshiradi.

Siyosiy faollik siyosiy tizim bilan fuqaro o'rtasidagi eng muhim bog'lovchi bo'g'inlardan biri bo'lib, ilmiy adabiyotlarda u fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish maqsadida amalga oshiradigan ixtiyoriy xatti-harakatlari majmui sifatida izohlanadi. S. Verba va N. Nie "Participation in America" asarida. Tadqiqotchi siyosiy ishtirokni keng ma'noda ta'riflaydi: bunda nafaqat saylovlarda ovoz berish, balki davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakillari bilan bevosita muloqotga kirishish, siyosiy kampaniyalarda faol ishtirok etish hamda mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash kabi faoliyat turlari ham nazarda tutiladi. Bunday yondashuv fuqaroning passiv kuzatuvchidan siyosiy jarayonlarning faol subyektiga aylanish bosqichlarini qamrab oladi.

Aholining siyosiy ishtirok etishiga turli motivlar ta'sir ko'rsatadi, siyosatning faoliyat sohasi sifatidagi jozibadorligi va unda qatnashishga bo'lgan manfaatdorlik ayrim insonlar siyosat bilan shug'ullanishga qiziqish bildiradilar va bu faoliyatga intiladilar. Bilish motivlari inson siyosiy tizim orqali dunyoning nisbatan barqaror manzarasini anglashga harakat qiladi. Boshqalar ustidan hokimiyatga ega bo'lish motivi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Mafkuraviy motivlar shaxsning o'z qarashlari va siyosiy tizimdagi mafkuraviy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikka asoslanadi. Jamiyatni o'zgartirish motivlari mavjud tizimdagi kamchiliklarni anglash va uni yaxshilashga intilish bilan bog'liq kuchli rag'batdir. Ba'zi hollarda insonlar do'stlari yoki qarindoshlariga ergashib, ularning ta'sirida siyosiy faoliyatga qo'shilishadi. Merkantil motivlar siyosatni daromad keltiruvchi faoliyat sifatida qabul qilish bilan izohlanadi. Soxta motivlar ko'pincha totalitar tuzumlarda targ'ibot ta'sirida shakllanib, turli shiorlar orqali namoyon bo'ladigan sun'iy rag'batlardir. Absenteizm esa siyosiy ishtirokka qarama-qarshi holat bo'lib, u siyosiy hayotda qatnashmaslikni anglatadi. Bu, masalan, saylovlarda ovoz bermaslik, saylov kampaniyalarida yoki norozilik aksiyalarida qatnashmaslik, siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlar faoliyatidan chetda qolish kabi

holatlarda namoyon bo'лади. Shuningdek, siyosiy apatiya ya'ni siyosat va siyosiy jarayonlarga qiziqishning yo'qligi ham absenteizmga kiradi.

Siyosiy madaniyatning amaliy ko'rinishi sifatida siyosiy faollikni oshirish masalasi zamonaviy siyosatshunoslikning markaziy yo'nalishlaridan biridir. Siyosiy madaniyat qanchalik ishtirokchi, ochiq va mas'uliyatli bo'lsa, siyosiy faollik ham shunchalik keng va mazmunli bo'лади; lekin bu bog'liqlik "o'z-o'zidan" emas, balki maxsus siyosiy, huquqiy, ta'limiy va institutsional mexanizmlar orqali ta'minlanadi. B. To'ychiyev va hamfikr o'zbek siyosatshunoslari siyosiy madaniyatni "ijtimoiy ong va umumiy madaniyatning siyosiy institutlar hamda siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan qismi" sifatida ta'riflar ekan, uning real ifodasi fuqarolarning saylovlarda, jamoat va nodavlat tashkilotlarda, mahalla yig'inlarida, fuqarolik tashabbuslarida qay darajada faol ishtirok etayotganiga qarab baholanishini ta'kidlaydilar. Shu sababli, siyosiy faollikni yuksaltirish mexanizmlarini shakllantirishda siyosiy madaniyatning ichki tarkibiy qismlari (bilim, qadriyat, ishonch) bilan bir qatorda, tashqi omillar – institutsional muhit, huquqiy tartib-taomillar, ta'lim tizimi, axborot makoni hamda iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarni kompleks ravishda inobatga olish talab etiladi.

Birinchi yirik blok fuqarolik va siyosiy ta'limga yo'naltirilgan mexanizmlarni o'z ichiga oladi. O'zbek tilidagi "Siyosatshunoslik" darsliklarida fuqarolarning siyosiy va huquqiy savodxonligini yuksaltirish siyosiy faollikni oshirishning ustuvor omili sifatida e'tirof etiladi. Xususan, umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida fuqarolik jamiyati, huquqshunoslik va siyosatshunoslikka oid fanlarning o'zaro muvofiqlashtirilgan holda o'qitilishi strategik ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda, talabalar o'zini o'zi boshqarish tizimi, debat klublari faoliyati hamda parlament va sud jarayonlarining imitatsion (modellashtirilgan) shakllarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish yoshlarning siyosiy bilimlarini mustahkamlashga va ularda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etish motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalari ham ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, maktab bosqichida beriladigan fuqarolik ta'limi, ayniqsa ochiq va erkin muhokama muhiti mavjud bo'lgan taqdirda, o'quvchilarning siyosiy jarayonlarga qiziqishini oshiradi. Bunday sharoitda ular saylovlarda qatnashish istagini bildiradi hamda norasmiy siyosiy faoliyatda ishtirok etishga nisbatan yuqori tayyorgarlik darajasini namoyon etadi.

Civic education haqidagi zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fuqarolik ta'limi uch asosiy yo'nalish orqali siyosiy faollikni oshirishi mumkin: birinchisi – formal darslar orqali siyosiy tizim va institutlar haqidagi bilimlarni berish; ikkinchisi – o'quvchilarni maktabdagi o'zini o'zi boshqarish, klublar, loyihalar orqali haqiqiy ishtirok tajribasiga jalb etish; uchinchisi – siyosatchilar va davlat

organlari vakillari bilan bevosita uchrashuvlar, “siyosiy kontakt”ni tashkil etish. Shu bilan birga, tadqiqotlar ogohlantiradiki, faqat yuqori darajada bilim berish, lekin ochiq munozara muhiti va ishtirokiy tajribani ta’minlamagan fuqarolik ta’limi ba’zan tengsizliklarni kuchaytirishi va faqat ijtimoiy jihatdan imtiyozli guruhlar siyosiy faolligini oshirishi mumkin; shuning uchun ta’lim mexanizmlari dizaynida inklyuzivlik va teng imkoniyatlar prinsipi muhimdir.

Siyosiy ishtirok samarali amalga oshadigan demokratik siyosiy tizimda aholi davlat hokimiyatini shakllantirish, uning faoliyatini nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini ijro etish jarayonlarida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi. Bunday tizimda fuqarolarning faolligi nafaqat huquqiy imkoniyat, balki hokimiyatning legitimligini ta’minlovchi hamda davlat va jamiyat o’rtasidagi barqaror muloqotni kafolatlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo’ladi. Bunda qarorlar ko’pchilik irodasi bilan, ozchilik manfaatlari ham inobatga olingan holda qabul qilinadi. Rivojlangan fuqarolik jamiyati shakllangan sharoitda huquqiy davlat barpo etiladi. Markaziy va mahalliy davlat hokimiyati organlari demokratik saylovlar asosida shakllantirilib, ular o’z faoliyati yuzasidan saylovchilar (xalq) oldida hisobdor va mas’uldirlar. Mazkur jarayon davlat hokimiyatining legitimligini ta’minlovchi birlamchi omil hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’XATI:

1. Основы политической науки. Учебное пособие. Под.ред.В.П.Пугачева.Часть II. –Москва: МГУ, 1996. –С.144-145.
2. Siёsatshunoslik: M.Қирғизбоев -268 б.2013;
3. Verba S., Nie N. H. Amerikada ishtirok etish: siyosiy demokratiya va ijtimoiy tenglik. - Nyu York: Harper & Satr, 1972. 1–30b;
4. Siyosatshunoslik. Darslik. – Namangan: NamDU, 2024;
5. Fuqarolik ta'limi siyosiy ishtirokdagi tengsizlikka qarshi vosita sifatida / / ilmiy hisobotlar, 2021.